

## BUXORIY HAYOTIGA BIR NAZAR

Umirzakova Barno Akram qizi

*Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani*

*69-maktab 10-sinf o'quvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada muhaddislar imomi, islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis, hadis ilmining sultoni deya e'tirof etiluvchi mashhur alloma Imom al-Buxoriy hayot yo'li, ijodiy faoliyati va shaxsiy sifatlari xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Muhaddis, imom, islom, hadis, roviy, sahih, nosahih, Buxoro, Payg'ambar, din, kitoblar, ilm, alloma, Samarqand, Buxoro, ustoz.*

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslik ilmi o'zining eng yuksak cho'qqisini zabt etdi. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819—261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/ 824—279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817— 275/880), Imom Ahmad An-Naso'iy (215/830—303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824—273/886) kabi siymolardir.\*Shular ichidan "Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir.

Imom Ismoil al-Buxoriy - taniqli muhaddis olim (muhaddislik — hadislar haqidagi fan, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning islom dini uchun xos so'zlari va ishlari haqidagi xabarlar) va ahamiyatiga ko'ra Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi "Al Jomiy as Sahih" kitobining muallifi.

Rivoyatlarga ko'ra, u yuz minglab hadislarini to'plab, ulardan uch yuz mingtasini yoddan bilgan. U hayotining qirq ikki yilini izlarishlar bilan o'tkazadi. Kitobi ustida ishlashni u Basrada boshlaydi va uni ko'p yillar davomida yozadi. Uning so'zlariga ko'ra, kitobga bir ming saksonta muhaddisning hadislarini kiritilgan. Hadislarning ishonchliligiga ularning kelib chiqish manbasi va har bir zanjir aniq ko'rsatgich bo'la oladi, zero, yetkazib beruvchining axloqiy timsoli nazarda tutilganligi, unga ishonish imkonini beradi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan "Al-jome' as-sahih", "Al-

adab al-mufrád”, “At-ta’rix as-sag’ir”, “At-ta’rix al-avsot”, “At-ta’rixal-kabir”, “Kitob al-ilal”; “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko’rsatish mumkin. Manbalardan ma’lumki, u ko’plab kitoblar yozgan bo’lib, ular orasida “Ta’rix Kabir” - “Buyuk Tarix” kitobi ham bor. Buxoriy yaratgan «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to’plamdir. Bir ming uch yuzi yigirma ikkita hadis va xabar jamlangan bu asar Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. U yaratgan "Al-jome‘ as-sahih" asari dinimizda Qur’ondan keyingi o’rinda turuvchi yuksak manba hisoblanadi.

Imom Buxoriy taniqli muhaddislar — al-Doxiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. O’z navbatida al-Buxoriy ham ko’pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Ishoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Imom al-Buxoriy hayotining ko’p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o’tadi. Bu haqda uning o’zi: “Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basraga to’rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag’dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman”, degan ekan.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o’zining go’zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o’tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g’oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Buxoriyning ilm yo’lida chekkan zahmatlari o’z samarasini berdi. U yaratgan asarlar islom dini ravnaqi uchun ulkan hissa qo’shdi. Imom Buxoriy yurtimiz shonini butun dunyoga tanitgan allomalardan biri hisoblanadi. O’z navbatida xalqimiz ham buyuk muhaddis sharafiga ulkan ehtirom ko’rsatdi. Xususan, Toshkent Islom institutiga Buxoriy nomi berilgan. Buxoriyning hayoti va ijodiga bag’ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qisimli film (1995), «Hadis ilmining sultoni» 4 qisimli kinoqissa (1998) yaratilgan.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Buxoriy garchi asrlar oldin hayot kechirgan bo’lsa-da, bugunga qadar o’z zehn-u zakovati bilan butun dunyo e’tirofiga sazovor bo’lmoqda. E’tiborlisi shundaki, ko’plab chet elliklar Farg’ona, Navoiy, Namangan kabi shaharlarni yaxshi tanimasalarda, bu zotning hurmatlarida ko’hna Buxoro va Samarqand shaharlarini yaxshi biladi. Aslida, Imom Buxoriy haqida mukammal bir asar yozishni istasak, dengiz siyohlari ham kamlik qiladi. Ko’pchilik

ulamolar bu zot haqlarida ulkan asarlar yozishga kirishayotgan bir paytda kaminaning ikki og'iz so'zi dengizdan bir tomchidir aslida. Imom Buxoriyning ilmiy jasoratlarini va shuhratlari u kishining asarlari va hadis ilmiga qo'shgan buyuk hissalarini barchani ilm yo'liga kirishga va sobit qolishga undaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz (Imom Buxoriyning hayot sahifalari). Toshkent: Hilol-NASHR 2022.
2. "Imom Buxoriy ta'rifi" (tarjima va izohlar muallifi Saidazim Muhammad Ali), Toshkent: Cho'lpon 1996.
3. Imom al-Buxoriy. "Al-jome' us-sahih", T.2013, 8-jildi Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Hadis va Hayot" 1-juz', T.2004
4. Inoyatov A. Imom Buxoriy va tafsir ilmi // Hidoyat. – Toshkent, 2020. B.76-80.
5. Inoyatov A. "Siyar a'lamun nubalo" asarida Imom Buxoriy siyrati "Sahihul Buxoriy"ning tafsir ilmidagi ahamiyati // Imom Buxoriy saboqlari. – Samarqand, 2021. – Maxsus son. – B. 133-145.
6. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ibn\\_Moja](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ibn_Moja)
7. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix> Umirzakova Barno. 1. 12. 2023.
8. Юсупова, О. (2023). DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).
9. Sevara, A., & Akhmadaliyeva, D. (2023). The Major Issues in Teaching and Writing of Contemporary Literature. Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777), 1(9), 91-95.
10. Akhmadaliyeva, D. R., & Igamberdieva, S. A. Methodology of Developing Media Competence In The Process of Teaching English to Students of Technical Higher Educational Institutions. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT.